
# Investitsiyaviy hamkorlik – kelajak istiqboli

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo’limi O’zbekiston tomonidan ta’sischisi sifatida o’zining 25 foizlik ilmiy-texnikaviy va intelektual salohiyati orqali Rossiya Federatsiyasining “Salyus” kompaniyasi bilan 10,0 mln. AQSH dollar miqdoridagi “Hamkorlik memorandumi” asosida “Salyus-O’zbekiston” O’zbekiston-Rossiya Qo’shma korxonasi tashkil etgan edi.

Shu munosabat bilan 2018-yil 20-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasiga “Salyus” kompaniyasi direktori Ivankov Yegor Aleksandrovich tashrif buyurdi. Mehmonni O‘zR FA prezidenti Bexzod Yuldashev va FA Navoiy bo‘limi raisi Abdurazzoq Mirzayev kutib oldi va hamkorlik aloqalarini kengaytirish hamda mustahkamlash bo‘yicha muzokaralar olib borildi.



Rossiyaning “Salyus” kompaniyasi direktori Ivankov Yegor Aleksandrovich O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimidagi ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan ilmiy hamkorlikni rivojlantirish istagida ekanligini bildirdi.